

**MEXANIKA VA INSHOOTLAR SEYSMIK MUSTAHKAMLIGI
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.T/FM.61.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDA
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

**O‘R FA M.T. O‘ROZBOYEV NOMIDAGI MEXANIKA VA INSHOOTLAR
SEYSMIK MUSTAHKAMLIGI INSTITUTI**

SAIDOV SARVAR ABDIJALILOVICH

**AVTOTRANSPORT VOSITALARI UZLUKLI GIDRAVLIK TIZIMLARI
BOSHQARUVI BARQARORLIGINI OSHIRISH UCHUN DINAMIK
MODEL ISHLAB CHIQISH**

01.02.02 – Mashinalar, asboblari va uskunalari dinamikasi va mustahkamligi

texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Тошкент – 2026

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on technical
sciences**

Saidov Sarvar Abdijalilovich

Avtotransport vositalari uzlukli gidravlik tizimlari boshqaruvi barqarorligini
oshirish uchun dinamik model ishlab chiqish3

Саидов Сарвар Абдижалилович

Разработка динамических моделей гидравлических разрывных систем
управлений повышенной устойчивости транспортных средств..... 23

Saidov Sarvar Abdijalilovich

Development of dynamic models of hydraulic rupture control systems for
increased vehicle stability43

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works.....45

**MEXANIKA VA INSHOOTLAR SEYSMIK MUSTAHKAMLIGI
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.T/FM.61.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDA
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

**O‘R FA M.T. O‘ROZBOYEV NOMIDAGI MEXANIKA VA INSHOOTLAR
SEYSMIK MUSTAHKAMLIGI INSTITUTI**

SAIDOV SARVAR ABDIJALILOVICH

**AVTOTRANSPORT VOSITALARI UZLUKLI GIDRAVLIK TIZIMLARI
BOSHQARUVI BARQARORLIGINI OSHIRISH UCHUN DINAMIK
MODEL ISHLAB CHIQISH**

01.02.02 – Mashinalar, asboblari va uskunalari dinamikasi va mustahkamligi

texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Тошкент – 2026

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.1.PHD/T2037 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi M.T. O'rozboyev nomidagi Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (<https://institutemechanics.uz/>) va "Ziyonet" axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Annakulova Gulsara Kuchkarovna**
fizika-matematika fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim

Rasmiy opponentlar: **Mardonov Botir Mardonovich**
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Xudjayev Muxiddin Kushaevich
texnika fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot: **Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.12.2019.T/FM.61.01 raqamli ilmiy kengash asosida bir martalik Ilmiy kengashning 2026 yil «__»__soat__dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100125, Toshkent shahri, Do'rmon yo'li ko'chasi 40-uy, 428-majlislar zali. Tel: (99855) 520-02-45, (99855) 520-04-46, e-mail: insmech@academy.uz).

Dissertatsiya bilan Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (35 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100125, Toshkent shahri, Do'rmon yo'li ko'chasi 40-uy. Tel: (99855) 520-02-45.

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil «__»__kuni tarqatildi.

(2025 yil «22» dekabrda 35 raqamli reester bayonnomasi).



M.M. Mirsaidov
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash raisi, texnika fanlari doktori, professor, O'zR FA akademigi

F.F. Adilov
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash ilmiy kotibi, fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori, katta ilmiy xodim

A.A. Rizayev
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash seminar raisi, texnika fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahonda transport vositalari, ayniqsa qishloq xo'jaligi, qurilish, harbiy va maxsus texnikalari asosiy qismini gidravlik boshqaruv tizimlari tashkil qiladi. Gidravlik tizimlar doimiy ravishda yuqori bosim, yuqori harorat, tezkor harakat va murakkab yuklanishlar ostida ishlashi, ularning tez ishdan chiqishga, ma'lum holatlarda texnika barqarorligini yo'qotishga va hatto halokatli avariyalarga olib kelishi sababli hozirgi zamonaviy talablar funksional xavfsizlikka ega, avtomatik uziladigan va barqaror ishlaydigan gidravlik boshqaruv tizimlarini yaratishga alohida ahamiyat berilmoqda. Hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda energiya oqimini xavfli holatlarda avtomatik to'xtatish va boshqaruvni saqlab qolish funksiyalarini qo'llash muammolarini hal etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada, jumladan transport vositasi rul boshqaruv, tormoz tizimi, kuch uzatish, yuk ko'tarish mexanizmlarining gidravlik tizimlari boshqaruvning turg'unligi va barqarorligi samaradorligini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jahonda transport vositalari gidravlik va elektrogidravlik boshqaruv tizimlarining ishonchliligi va barqarorligini oshirish imkonini beruvchi matematik modellarni ishlab chiqish hamda takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Transport vositalarining elektrogidravlik boshqaruv tizimlarini barqarorligi va ishonchligini yaxshilash ustuvor masala hisoblanadi. Ushbu yo'nalishda, jumladan, Bosch Rexroth (Germaniya) ilmiy laboratoriyalarida elektrogidravlik servo va proporsional klapanlarning chiziqsiz dinamik modellarini ishlab chiqish, Lyapunov funksiyalariga asoslangan barqarorlashtiruvchi boshqaruv qonunlarini sintez qilish, Eaton (Irlandiya) korporatsiyasi tadqiqotlarida nasos, taqsimlagich va ijro mexanizmlarining o'zaro ta'sirini hisobga olgan integrallashgan dinamik modellar, Danfoss (Daniya) ilmiy laboratoriyalarida esa raqamli gidravlik tizimlar, diskret klapanlar asosida boshqaruv, chiziqsiz xarakat va Lyapunov usullariga asoslangan stabilizatsiya algoritmlarini qo'llash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Umuman olganda, transport vositalari gidravlik va elektrogidravlik boshqaruv tizimlarining mukammallashtirilgan dinamik modellarini ishlab chiqish, ular asosida barqarorlik va ishonchlilikni oshiradigan boshqaruv usullari algoritmlarini tuzish dolzarb vazifalardan hisoblanmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda qishloq xo'jaligi, yo'l qurilishi va logistika sohalarida transport vositalariga bo'lgan talab ortgani sababli, gidravlik boshqaruv tizimlarining rolini to'g'ri baholashga qaratilgan ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan "Avtomobil sanoatida kooperatsiyani yanada rivojlantirish orqali ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga, eksport hajmini 2 baravarga ko'paytirish va mahalliyashtirish darajasini oshirish. Chirchiq shahrida qishloq xo'jaligi mashinasozligi ishlab chiqarishini yagona sanoat klasteri usulida tashkil etish"¹ bo'yicha vazifalari belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda,

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi Farmoni

modellashtirish asosida transport vositalarining gidravlik boshqaruv tizimlarini mahalliy sharoitlarga mos ravishda qayta ishlab bo'yicha tadqiqotlar olib borish muhim hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktyabrdagi PF-5853-son "O'zbekiston Respublikasining qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 iyuldagi PQ-3117-son "Qishloq xo'jaligida mashinasozlik sohasi ilmiy-texnikaviy bazasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Ushbu tadqiqot Respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning II. «Energetika, energiya va resurslarni tejash» ustuvor yo'nalishiga muvofiq amalga oshirildi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Gidravlik tizimlar dinamikasi va boshqaruvi, turg'unligi va stabillashtirish nazariyalarini shakllantirish va rivojlantirishga H.E. Merrit, M. Jelali, M. Khalil, H.K. Esfandiari, Shibly Ahmed, K.E. Rydberg, O'nder M, Q. Gui, A.A. Boguslavskiy, D.V. Galdin, M.I. Jilevich, N.F. Metlyuk, V.P. Avtushko, N.S. Gaminin, T.M. Bashta, V.D. Furasov, V.N. Afanasev, D.N. Popov, V.G. Zezin, Ya.A. Darsht tomonidan amalga oshirilgan.

Respublikamizda D.F. Fayzullayev, K.Sh. Latipov, I.K. Xujayev, Z.M. Malikov, K.A. Sharipov, M.K. Xudjayevlar gidrodinamika masalalari bo'yicha, gidravlik tizimlar dinamikasi va boshqaruvi, turg'unligi va stabillashtirish masalalari bo'yicha esa O.V. Lebedev, X.T. Turaev, A.A. Shermuxamedov, G.K. Annakulova va boshqa bir qator olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borishgan va ijobiy natijalarga erishgan.

Shu bilan birga, transport vositalari gidravlik tizimining turg'unligi va stabillashtirish omillarini o'rganish, baholash va tahlil qilishga imkon beradigan matematik va kompyuter modellarini ishlab chiqish muammolari yetarli darajada o'rganilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi M.T.O'rozboev nomidagi Mexanika inshootlar seysmik mustahkamligi institutining «Mashinasozlikda gidro-pnevmo yuritmalar tizimlaridagi dinamik chiziqsiz jarayonlarni, turg'unligini va stabillashtirish masalalarini tadqiq qilish uslublarini ishlab chiqish» fundamental mavzusi (2020-2022), «Transport vositalari gidro-pnevmatik tizimlari maxsus va tabiiy chiziqsizliklarini hisobga olgan holda stabillashtirish va hisobi matematik modellarini ishlab chiqish» fundamental mavzusi (2022-2024), MB-Atex-2018-94 –"Cho'l yerlarda ishlash uchun mo'ljallangan yuqori turg'unlikka ega to'rt g'ildirakli universal-chopiq traktorining konstruktiv parametrlarini ishlab chiqish" (2018-2020 yy.) amaliy loyiha bo'yicha ilmiy tadqiqot loyihalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi transport vositalari uzlukli gidravlik tizimlari boshqaruvi barqarorligini oshirish uchun dinamik model ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

tizimlarning chiziqsizligini hisobga olgan holda transport vositalarining gidravlik va elektro-gidravlik boshqaruv tizimlarining barqarorligini ta'minlash usullari bo'yicha mahalliy va xorijiy tadqiqotlarni tahlil qilish;

transport vositalarining gidravlik va elektro-gidravlik boshqaruv tizimlari harakatining matematik modelini ishlab chiqish;

Lyapunov funksiyalari va dinamik dasturlash usullari asosida transport vositalarining gidravlik va elektro-gidravlik boshqaruv tizimlarining barqarorligini hisoblash va tahlil qilish uslubiyatini ishlab chiqish;

dinamik dasturlash usuli asosida gidravlik va elektrogidravlik boshqaruv tizimlarining ratsional blok-sxemalarini qurish;

Matlab-Simulink dasturidan foydalangan holda transport vositalarining gidravlik tizimlarining dinamik modellarini ishlab chiqish;

hisoblash va modellashtirish natijalarini eksperiment natijalari bilan qiyosiy tahlil qilish.

Tadqiqot ob'ekti sifatida transport vositalari uzlukli gidravlik tizimlari olingan.

Tadqiqot predmeti transport vositalari uzlukli gidravlik tizimlari boshqaruvi barqarorligini oshirish uchun dinamik modelni nazariy va kompyuterli modellashtirish usublari.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida matematik modellashtirish, chiziqsiz mexanika, suyuqliklar va gazlar mexanikasining asosiy qoidalari, avtomatik rostdash va boshqarish nazariyasi va kompyuter (Matlab-simulink) dasturida tizimning dinamik va imitatsion modellarini qurish, tajribalarni rejalashtirish va matematik statistika usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

transport vositalari gidravlik rul boshqaruvi, gidravlik osma tizimlari matematik modellari doirasida chiziqsizliklarni (ishqalanish, ishchi suyuqlikning siqiluvchanligi) hisobga olgan holda Lyapunov-Bellman ustuvorlik nazariyasi asosida matematik modellari ishlab chiqilgan;

ishlab chiqilgan model asosida transport vositalarining gidravlik va elektrogidravlik boshqaruv tizimlarining barqarorligini tahlil qilish uslubiyati taklif qilingan;

transport vositalarining gidravlik ilgarilanma-qaytma ijro mexanizmi uchun Lyapunov funksiyalarini qurish usuli yordamida tizim turg'unligini ta'minlovchi shartlar aniqlangan;

transport vositalarining gidravlik aylanma va ilgarilanma-qaytma harakatlanuvchi ijro mexanizmlari uchun barqarorlashtiruvchi qonuniyatlari aniqlangan;

transport vositalarining gidravlik aylanma va ilgarilanma-qaytma harakatlanuvchi ijro mexanizmlarining ratsional strukturaviy sxemalari barqarorlashtiruvchi qonuniyatlarni hisobga olgan holda tuzilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

transport vositalarining uzlukli gidravlik tizimlari barqarorligini baholashning umumlashtirilgan Matlab-Simulink modeli ishlab chiqilib simulatsiya qilingan, natijada tizim parametrlarini oldindan tanlash imkoniyati yaratilgan;

dinamik dasturlash uslubidan foydalangan holda elektrogidravlik tizim ijrochi elementlari aylanma va ilgarilanma-qaytma harakatlanuvchi bo'lgan hollarda stabillashtiruvchi funksiyalarni aniqlash uchun Bellman tenglamalari olinib, tizimlar uchun optimal stabillashtiruvchi funksiyalarni aniqlash uslubiyati taklif etilgan;

olingan natijalar asosida transport vositasi uzlukli gidravlik tizimlari boshqaruv barqarorligini ta'minlash uchun zarur xulosalar keltirilgan;

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Olingan natijalar rele tipida ishlovchi gidravlik tizimining dinamik parametrlarini matematik modellashtirish, chiziqsiz mexanika, suyuqliklar va gazlar mexikasining asosiy qoidalari, avtomatik rostdash va boshqarish nazariyasi va kompyuter (Matlab-simulink) dasturida tizimning dinamik va imitatsion modellari asosida amalga oshirilganligi, tajribalar natijalariga matematik statistika usublari bilan ishlov berilganligi, gidravlik tizimni dinamik hisoblashda kompyuter dasturlaridan foydalanilgani, olingan nazariy va eksperimental natijalarning o'zaro mosligi, yetarliligi, tadqiqotlar laboratoriya sinovlari o'tkazilib, amaliyotga joriy qilinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati transport vositalari gidravlik tizimlarining turg'unligi masalalarini parametrlarning chiziqsizligini hisobga olish orqali masalalarni matematik, dinamik modellashtirish, sonli yechish va simulatsiya usullari taklif etilgan, samarali hisoblash Simulink modeli ishlab chiqilgan va ular yordamida dasturiy vositalar yaratilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati transport vositalari uzlukli gidravlik tizimlarning turg'unligini o'tish rejimlarini hisoblash usullarini ishlab chiqish, shuningdek, avtotebranishlarning vujudga kelish shartlari aniqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Transport vositalarining uzlukli gidravlik tizimlari barqarorligini oshirish uchun dinamik model ishlab chiqish bo'yicha olingan natijalar asosida:

Chiziqsiz jarayonlarni hisobga olgan holda uzlukli gidro-pnevmatik boshqaruv tizimlarida barqarorlik mezonlarini aniqlashning kombinatsiyalashgan usuli "O'zavtosanoat" AJda joriy etilgan: ("O'zavtosanoat" AJ ma'lumotnomasi №17/07-25-0517, 2025-yil 15-mart). Natijada transport vositalari gidravlik tizimlaridagi jarayonni avtomatlashtirish imkoniyati yaratilgan.

Tipik gidravlik va elektro-gidravlik tizimlar uchun barqarorlashtirish va hisoblashning dinamik modeli "O'zavtosanoat" AJga joriy etildi (O'zavtosanoat AJ ma'lumotnomasi №17/07-25-0517, 2025-yil 15-mart) taklif qilindi. Natijada transport vositalari gidrotizimlarida kechadigan dinamik jarayonlarning ratsional parametrlar tanlash imkoni yaratilgan.

Traktor gidrotizimiga ish jarayonini modellashtirish orqali loyihalash sifati va konstruktorlik ishlari samaradorligini 14-16 % oshirilishiga erishildi. Natijada

mehnat unumdorligini oshishi hisobiga bir yilda iqtisodiy samaradorlik 11 200 000 soʻmni tashkil etdi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya ishining asosiy natijalari natijalari 5 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, shu jumladan, 4 ta xalqaro va 1 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining eʼlon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi boʻyicha jami 12 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta ilmiy maqola chop etilgan, jumladan, 5 ta respublika va 1 ta xorijiy jurnallarida chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, toʻrtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 118 betni tashkil etgan, 35 ta rasm, 110 nomdagi adabiyotlar roʻyxatidan tashkil topgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida oʻtkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsad va vazifalari, obʼekt va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi koʻrsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etilishi roʻyxati, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya ishining tuzilishi boʻyicha maʼlumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya ishining «**Transport vositalari uzlukli gidravlik tizimlari boshqaruvi dinamik modellari boʻyicha adabiyotlar tahlili**» deb nomlangan birinchi bobida gidravlik tizimlar dinamikasining klassik va zamonaviy tadqiqotlari, gidravlik tizimlar tadqiqotlarining hozirgi kundagi ahvoli, tizim uchun dinamik modellar tuzish uslubiyatlari va uzlukli ishlaydigan gidravlik elementlar parametrlarining turgʻunlikka taʼsiri boʻyicha olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari tahlil qilingan hamda tadqiqotning maqsad va vazifalari shakllantirilgan.

Dissertatsiya ishining «**Transport vositasi gidravlik yuritmalarining umumiy xususiyatlari va xarakat tenglamalarining tadqiqi**» deb nomlangan ikkinchi bobida uzlukli gidravlik tizimlar uchun masalaning qoʻyilishi, transport vositalari uzlukli gidravlik tizimlari dinamikasini modellashtirishning asosiy tamoyillari, rele tipidagi gidroyuritma boshqaruv tizimlarining turgʻunligini tahlil va tadqiq qilishning samarali uslubiyati Lyapunov funksiyalarini qurishning Zubov usuli asosida ishlab chiqish, ikki pozitsiyali gidravlik yuritma turgʻunligin (gidrosilindrdagi ishqalanishlarni hisobga olgan holda) tadqiq qilish va Lyapunov teoremasini qanoatlantiruvchi Lyapunov funksiyasini qurish, turgʻunlik shartini aniqlash, gidravlik tizim uchun Matlab-Simulink modelini qurish uslubiyatlari keltirilgan.

Gidrotsilindrning harakatlanuvchi elementlari harakat tenglamalari, unga taʼsir qilayotgan kuchlar va momentlar taʼsirida harakatlanuvchi elementning muvozanatiga asoslanib tuziladi

$$m_p \frac{d^2 y_p}{dt^2} = F_D + F_C, \quad (1)$$

bu yerda y_p – porshening ko‘chishi, F_D, F_C – aktiv va qarshilik kuchlari.

Matlab-Simulink dasturidan foydalanib, gidravlik tizimni modellashtiramiz. Ko‘rib chiqilayotgan holat harakat tenglamasi (1) quyidagi ko‘rinishda yoziladi:

$$m_p \frac{d^2 y_p}{dt^2} = (p_1 A_p - p_2 A_{sh}) + F_v + \text{sign} \dot{y}_p \left[F_c + F_s \exp\left(\frac{-|\dot{y}_p|}{c_s}\right) \right] + F_{tash}, \quad (2)$$

bu yerda F_{tash} - gidrosilindr shtokiga ta'sir qilayotgan yuk (tashqi kuch), F_v - qovushqoq ishqalanish kuchi, F_c - quruq ishqalanish kuchi, F_s - porshening silindr devorlariga nisbatan statik ishqalanish kuchi, c_s – sribek tezligi.

Ishchi suyuqlik Q_k va Q_{ch} oqimlarini zolotnikning holatini inobatga olgan holda ularni quyidagi ko‘rinishda yozamiz:

$$Q_k = c_0 [sg(y_z) \text{sign}(p_v - p_1) \sqrt{|p_v - p_z|} - sg(-y_z) \text{sign}(p_1 - p_T) \sqrt{|p_1 - p_T|}], \quad (3)$$

$$Q_{ch} = c_0 [sg(y_z) \text{sign}(p_v - p_1) \sqrt{|p_2 - p_T|} - sg(-y_z) \text{sign}(p_v - p_2) \sqrt{|p_v - p_2|}].$$

Zolotnikning harakat tenglamasi ikkinchi tartibli differensial tenglama orqali ifodalanadi:

$$\ddot{y}_z + 2\zeta \omega_n \dot{y}_z + \omega_n^2 y_z = \omega_n^2 u \quad (4)$$

bu yerda u - boshqaruvchi signal, ω_n - хусусий частота, ζ - dempferlovchi koeffitsiyent.

Gidrosilindr bo‘shliqlaridagi bosimlar quyidagi ifodalar yordamida aniqlanadi:

$$\dot{p}_1 = \frac{E'}{V_p (y_{p0} + y_p) A_p} [Q_k - A_p \dot{y}_p], \quad (5)$$

$$\dot{p}_2 = \frac{E'}{V_{sh} (y_{p0} + y_p) A_{sh}} [Q_{ch} - A_{sh} \dot{y}_p],$$


bu yerda V_p, V_{sh} - gidrosilindrning shtoksiz va shtokli kameralari tomonidagi quvurlar hajmlari, mos ravishda quyidagicha belgilanadi, A_p, A_{sh} - gidrosilindrning shtoksiz va shtokli qismlari yuzasi, E' - ishchi suyuqlikning keltirilgan siqiluvchanlik moduli.

Matlab-Simulink dasturida gidravlik tizimning (gidrotaqsimlagich va gidrosilindr) dinamik modeli ishlab chiqildi va hisoblandi (1-rasm).




1 - rasm. Hidrotizimning Simulink-modeli


Drosselning (100, 90, 80, 70, 60 va 50 %) ochilishlarida, tizim 700 va 500 H yuklanganda bosimning o'zgarish natijalari olindi. Drosselning 60 va 50 % ochilishlarida tizimdagi bosimning yuqori bo'lganligi (14÷16 MPa) kuzatildi (2 va 3 - rasmlar). Tizimga kichik yuklanish (90 H) qo'yilgandagi, drosselning 30, 60 va 100 % ochilishlarida bosimning o'zgarishi olindi.



2-rasm. $F = 700$ N bo'lganda bosim qiymatlarining vaqt bo'yicha o'zgarishi



3-rasm. $F = 500$ N bo'lganda bosim qiymatlarining vaqt bo'yicha o'zgarishi




4-rasm. $F = 90$ N bo'lganda bosim qiymatlarining vaqt bo'yicha o'zgarishi

Ishlab chiqilgan dastur boshqaruv blokiga uzatiladigan boshqaruv signallarini modellashtirishga, gidrosilindr shtokiga ta'sir qiluvchi yuklamani imitatsiya qilishga, o'tish jarayonini grafiklar ko'rinishida olishga imkon beradi, gidrotizimdagi o'tish jarayonlarini tahlil qilishni soddalashtiradi, shuningdek, loyihalash bosqichida gidroyuritmaning tarkibiy qismlari uchun maqbul konstruktiv parametrlarni tanlash imkonini beradi.

Dissertatsiya ishining “**Transport vositasi uzlukli gidravlik tizimlari harakatini stabillashtirish**” nomli uchinchi bobida ijrochi mexanizmlari aylanma va ilgarilanma-qaytma harakat qiluvchi servomexanizmlarning harakatini barqarorlashtirish masalalari ko‘rilgan. Tizimning barqarorligini ta‘minlaydigan Lyapunov funksiyasi aniqlangan. Dinamik dasturlash uslubidan foydalangan holda elektrogidravlik tizim ijrochi elementlari aylanma va ilgarilanma-qaytma harakatlanuvchi bo‘lgan hollarda stabillashtiruvchi funksiyalarni aniqlash uchun Bellman tenglamalari olinib, optimal strukturaviy sxemalari qurilgan.

Ijro mexanizmi aylanma harakatlanuvchi gidravlik tizimni modellashtirish.



4-rasm. Elektrogidravlik tizim prinsipial sxemasi

Tizim quyidagicha ishlaydi. Nasosdan ishchi suyuqlik elektro-gidravlik taqsimlagichga yuboriladi. Tizim kontrollerdan keladigan signal orqali boshqariladi. Ishchi suyuqlik oqimi ta‘sirida gidromotor aylana boshlaydi va natijada burchak tezligi hosil bo‘ladi. Aylanish parametrlarini datchiklar qayd etadi va olingan ma‘lumotlar signal uzatish tizimi orqali kontrollerga uzatiladi. Kontroller kiruvchi ma‘lumotlarni tahlil qilib, taqsimlagichga boshqaruv signalini yuboradi.

Elektrogidravlik taqsimlagich orqali oqayotgan ishchi suyuqlik sarfi quyidagi ko‘rinishda ifodalanadi:

$$Q_z = k_z x_v \sqrt{\frac{p_n - p_T - p_H \text{sign}(x_v)}{2}}, \quad \text{sign}(x_v) = \begin{cases} 1, & x_v > 0, \\ 0, & -1 < x_v < 1, \\ -1, & x_v < 0, \end{cases} \quad (6)$$

bu yerda $k_z = \mu_z \pi d_z k_n \sqrt{\frac{2}{\rho}}$; μ_z – suyuqlik sarfi koeffitsiyenti; d_z – zolotnik diametri;

k_z – zolotnik perimetridan foydalanish to‘liqligi koeffitsiyenti; p_n – taqsimlagichga keladigan bosim; p_T – bakka qaytishdagi bosim; p_H – gidromotor bo‘shliqlaridagi bosimlar farqi.

(6) ifodaning o‘ng qismini p_T bakka qaytishdagi bosim va yuritma nasosidan kelayotgan p_n bosimning o‘zgarmas qiymatlarida, $x_0 = 0$, $p_{H.0} = 0$ atrofida chiziqli holga keltirib, (6) ni quyidagicha o‘zgartirish mumkin:

$$Q_z = K_{Qx} x_v - K_{Qp} p_H. \quad (7)$$

Inersion yuklama va qovushqoq ishqalanishning quruq ishqalanishga nisbatan ustunligi sharoitida gidromotorning chiqish vali uchun harakat tenglamasi quyidagi ko‘rinishga ega:

$$J_m \frac{d^2 \alpha}{dt^2} + k_{tr.m} \frac{d\alpha}{dt} = q_m p_H, \quad (8)$$

bu yerda J_m – gidromotor valiga keltirilgan gidromotoring aylanuvchi qismlarining umumiy inersiya momenti; $k_{tr.m}$ – gidromotordagi ishqalanish koeffitsiyenti.

Elektro-gidravlik taqsimlagich bilan gidromotorni bog‘lovchi quvurlarda hamda gidromotor bo‘shliqlarida suyuqlikning siqiluvchanligini hisobga olgan holda oqimlar muvozanat tenglamasi quyidagi ko‘rinishda yoziladi:

$$\frac{V_0}{2B_{tr}} \frac{dp_H}{dt} + k_{per.m} p_H = Q_z - q_m \frac{d\alpha}{dt}, \quad (9)$$

bu yerda V_0 – elektro-gidravlik taqsimlagich va gidromotorga ulangan bo‘shliqlari orasidagi quvurlarning hajmi; B_{tr} – hajmiy elastiklik moduli; q_m – gidromotor hajmi; α – gidromotor valining burilish burchagi. Gidromotor valining burilish burchagi datchigidan olingan chiqish kuchlanishi elektrogidravlik taqsimlagich kirish qismida boshqaruvchi kuchlanish u_k bilan solishtiriladi

$$u_b = (u_k - K_{pta} \alpha), \quad (10)$$

bu yerda K_{pta} - pozitsion teskari aloqa koeffitsiyenti.

Quyidagi belgilashlarni kiritamiz

$$\alpha = y_1, \quad \dot{\alpha} = y_2, \quad p_H = y_3. \quad (11)$$

(9) ifoda va (11) ni hisobga olgan holda (8) differensial tenglamalar tizimi quyidagi ko‘rinishni oladi:

$$\begin{aligned} \frac{dy_1}{dt} &= y_2, \\ \frac{dy_2}{dt} &= -\frac{k_{tr.m}}{J_m} y_2 + \frac{q_m}{J_m} y_3, \\ \frac{dy_3}{dt} &= -\frac{2B_{tr}q_m}{V_0} y_2 + (K_{Qp} - k_{per.m}) \frac{2B_{tr}}{V_0} y_3 + K_{Qx} \frac{2B_{tr}}{V_0} x_v. \end{aligned} \quad (12)$$

(12) tizim uchun stasionar yechimni aniqlaymiz. Stasionar yechimni aniqlash uchun tenglamalar:

$$\begin{aligned} y_2 &= 0, \\ -\frac{k_{tr.m}}{J_m} y_2 + \frac{q_m}{J_m} y_3 &= 0, \\ -\frac{2B_{tr}q_m}{V_0} y_2 + (K_{Qp} - k_{per.m}) \frac{2B_{tr}}{V_0} y_3 + K_{Qx} \frac{2B_{tr}}{V_0} x_v &= 0, \end{aligned} \quad (13)$$

bundan

$$y_1 = 0, \quad y_2 = \frac{K_{Qx} x_v}{q_m}, \quad y_3 = 0. \quad (14)$$

Shunday qilib, tizimning stasionar (barqaror holatdagi) yechimlari quyidagi ko‘rinishga ega:

$$y_{10} = 0, \quad y_{20} = \frac{K_{Qx} x_v}{q_m}, \quad y_{30} = 0. \quad (15)$$

(12) tenglamalar tizimidan quyidagi almashtirishlar orqali

$$y_1 = x_1, \quad y_2 = x_2, \quad y_3 = x_3, \quad (16)$$

toyilgan harakat tenglamalarini quyidagicha olamiz va barqarorlashtiruvchi u funksiyani kiritamiz:

$$\begin{aligned} \dot{x}_1 &= x_2, \\ \dot{x}_2 &= -\frac{k_{tr.m}}{J_m} x_2 + \frac{q_m}{J_m} x_3 + u, \\ \dot{x}_3 &= -\frac{2B_{tr} q_m}{V_0} x_2 - (K_{Qp} - k_{per.m}) \frac{2B_{tr}}{V_0} x_3. \end{aligned} \quad (17)$$

(17) tenglamalar sistemasining statsionar yechimlarining barqarorligini ko'rib chiqamiz.

(16) munosabatlar koordinatalar bosh nuqtasini, (y_{10}, y_{20}, y_{30}) nuqtasiga siljitish bo'yicha o'zgartirishni aniqlaydi. Shu sababli, (12) tenglamaning yechimiga (17) tenglamalarning quyidagi ko'rinishdagi yechimi mos keladi:

$$x_k = 0, \quad k = 1, 2, 3. \quad (18)$$

Lyapunov funksiyasini quyidagi ko'rinishda aniqlaymiz:

$$V = \frac{1}{2} (x_1^2 + x_2^2 + x_3^2). \quad (19)$$

V funksianing hosilasini (17) tenglamalar tizimiga asoslanib aniqlaymiz

$$\frac{dV}{dt} = x_1 \dot{x}_1 + x_2 \dot{x}_2 + x_3 \dot{x}_3. \quad (20)$$

(17) tenglamalarga muvofiq quyidagini olamiz:

$$\frac{dV}{dt} = -\frac{k_{Tp.m}}{J_m} x_2^2 - (K_{Qp} + k_{nep.m}) \frac{2B_{mp}}{V_0} x_3^2 - \left(\frac{2B_{mp} q_m}{V_0} - \frac{q_m}{J_m} \right) x_2 x_3 + x_1 x_2. \quad (21)$$

(21) munosabatdan, quyidagi shart ko'rinishda:

$$\frac{dV}{dt} < 0 \quad (22)$$

quyidagi shartlar bajarilganda tizim turgunligi ta'minlanadi:

$$\frac{k_{mp}}{J_m} > 0, \quad \frac{2B_{mp}}{V_0} - \frac{1}{J_m} > 0, \quad (K_{Qp} + k_{nep.m}) \frac{2B_{mp}}{V_0} > 0. \quad (23)$$

Agar (22) va (23) shartlar bajarilsa, unda Lyapunov funksiyasi V har doim musbat bo'ladi, uning hosilasi \dot{V} esa manfiy ishorali bo'ladi. Shunga ko'ra, Lyapunov teoremasiga asosan, ko'rib chiqilayotgan holatda toyilgan harakat barqaror hisoblanadi.

(17) tenglamalar sistemasini qaraymiz, berilgan nuqta sifatida koordinatalar

$x_* \left(0, \frac{K_{Qx} x_v}{q_m}, 0 \right)$ boshini qabul qilamiz, ya'ni quyidagicha belgilaymiz $x_* = 0$.

Optimal boshqaruv jarayoni Bellman tenglamasi yordamida aniqlanadi. Uni (17) ifodani hisobga olgan holda quyidagi ko‘rinishda yozamiz:

$$\min_u \left[x_1^2 + x_2^2 + x_3^2 + u^2 + \frac{\partial s}{\partial x_1} x_2 + \frac{\partial s}{\partial x_2} \left(-\frac{k_{tr.m}}{J_m} x_2 - \frac{q_m}{J_m} x_3 + u \right) + \frac{\partial s}{\partial x_3} \left(\frac{2B_{tr} q_m}{V_0} x_1 + \frac{2B_{tr} (K_{Qp} - k_{per.m})}{V_0} x_3 \right) \right] \quad (24)$$

Minimumni aniqlash uchun (24) tenglamaning o‘ng tomonini u bo‘yicha differensiallaymiz va nolga tenglashtiramiz:

$$2u + \frac{ds}{dx_2} = 0. \quad (25)$$

(25) dan

$$u = -\frac{1}{2} \frac{ds}{dx_2}. \quad (26)$$

(24) tenglamaning yechimini quyidagi funksiya ko‘rinishda izlaymiz:

$$s(x) = b_1 x_1^2 + b_2 x_2^2 + b_3 x_3^2. \quad (27)$$

$s(x)$ funksiyaning xususiy hosilalari quyidagicha ifodalanadi:

$$\frac{\partial s}{\partial x_1} = 2b_1 x_1, \quad \frac{\partial s}{\partial x_2} = 2b_2 x_2, \quad \frac{\partial s}{\partial x_3} = 2b_3 x_3. \quad (28)$$

(28) munosabatlarni (24) ga qo‘yib, quyidagini olamiz:

$$x_1^2 + x_2^2 + x_3^2 - (b_2 x_2)^2 + 2b_1 x_1 x_2 - \frac{2b_2 k_{tr.m}}{J_m} x_2^2 + 2b_1 q_m x_1 x_3 + \frac{2b_2 q_m}{J_m} x_2 x_3 - 2b_2 x_2^2 + 2b_3 \left(\frac{2B_{tr} (K_{Qp} - k_{per.m})}{V_0} \right) x_3^2 = 0. \quad (29)$$

b_1, b_2 va b_3 koeffitsiyentlarni aniqlash uchun algebraik tenglamalar sistemasini tuzib, (26) va (28) munosabatlarini hisobga olgan holda sintezlovchi funksiyaning quyidagi ko‘rinishda olamiz:


$$u = \frac{1}{2} \left(\frac{k_{tr.m}}{J_m} - \frac{\sqrt{k_{tr.m}^2 + J_m^2}}{J_m} \right) x_2. \quad (30)$$

Shu tariqa, optimal sintezlovchi funksiya (30) tenglama bilan ifodalanadi.


Modellashtirish jarayonida quyidagi kattaliklarning qiymatlaridan foydalanildi:

$$K_{Qx} = 1,865 \text{ m}^2 / \text{s}; \quad K_{Qp} = 1,259 \text{ m}^3 / \text{Pa} \cdot \text{s}; \quad B_{tr} = 8 \cdot 10^8 \text{ Pa}; \quad V_0 = 0,175 \cdot 10^{-3} \text{ m}^3; \\ k_{per.m} = 4,82 \cdot 10^{-12} \text{ m}^3 (\text{Pa} \cdot \text{s}); \quad q_m = 5,68 \cdot 10^{-6} \text{ m}^3; \quad k_{tr.m} = 0,973 \text{ Nms}; \quad k_z = 8,34 \cdot 10^{-4}.$$

6 va 7 - rasmlarda gidravlik tizimda barqarorlashtiruvchi funksiyaning hisobga olinmagan va olingan holatlarda tizim bosimining hamda gidromotor valining burilish burchagi o‘zgarishlari keltirilgan.



6-rasm. Hidravlik tizimdagi bosimning o'zgarishi




7-rasm. Hidromotor valining burilish burchagining o'zgarishi

Raslardan ko'rinib turibdiki, olingan boshqaruv qonuni tizimning barqarorligini ta'minlaydi.

Ijro mexanizmi ilgari lanma qaytma xarakterlanuvchi gidravlik tizimni barqarorlashtirish. Tizim Matlab-Simulink muhitida amalga oshirilgan holda, tizimdagi bosimning o'zgarishi, porshen va zolotnikning siljishini barqarorlashtiruvchi funktsiya hisobga olinmagan va olingan holatlarda aniqlangan.

Gidrosilindr va taqsimlagichdan iborat bo'lgan gidrotizimni ko'rib chiqaylik (8-rasm). Servomexanizm quyidagicha ishlaydi: agar zolotnik 1 chapga harakatlansa, 7 bosim quvuridan suyuqlik B bo'shlig'iga oqib kiradi, va ishchi oqim 8 quvur orqali gidrosilindr 3 ning shtokli bo'shlig'i C ga yo'naltiriladi. D bo'shlig'idan chiqayotgan suyuqlik esa 9 quvur orqali gidrobakga qaytadi. Bu holatda porshen 4 o'ngga siljiydi, va shtok avtomobilning rul mexanizmi orqali harakatni uzatib, g'ildirakning burilishini ta'minlaydi.



- 1 – zolotnik; 2 – gidrotaqsimlagich; 3 – gidrosilindr; 4 – porshen;
5 – rul mexanizmi elastik elementlari; 6 – g'ildirak; 7 – yuqori bosimli quvur; 8 – quvur; 9 – past bosimli quvur

8-rasm. Rul servomexanizmi funksional sxemasi

Servomexanizmning harakat tenglamalari quyidagi ko'rinishda ifodalanadi:

$$\begin{aligned}
 m_1 \frac{d^2 x_1}{dt^2} &= p_1 A_1 - k_1 \frac{dx_1}{dt} - c_1 (x_1 - x_2), \\
 m_2 \frac{d^2 x_2}{dt^2} &= p A_2 - k_2 \frac{dx_2}{dt} - c_2 x_2 - c_1 (x_1 - x_2), \\
 k_p \frac{dp}{dt} &= \frac{dx_2}{dt} A_2 - \mu b x_1 \sqrt{\frac{2(p - p_0)}{\rho}},
 \end{aligned}
 \tag{31}$$

bu yerda p_1 – zolotnikni boshqaruvchi bosim; p_0 – tizimdagi bosim; A_1, A_2 –

zolotnik va porshen ko'ndalang kesim yuzalari; m_1, m_2 – zolotnik va porshen massalari; c_1, c_2 – gidrotaqsimlagich va porshen prujinasi bikrlilari; k_1, k_2 – gidrotaqsimlagich va porshen dempferlovchi koeffitsiyentlari; k_p – ishchi suyuqlik va quvurlarning elastik xossalarini hisobga oluvchi koeffitsient; μ – dinamik qovushqoqlik koeffitsiyenti; b – zolotnikning ochilish tirqishi; ρ – ishchi suyuqlik zichligi.

(31) ifodadan ko'rinib turibdiki, uchunchi tenglama chiziqsiz hadga ega. Yuqori bosimli quvurning o'zgarish qiymatlarida, $x_{01} = 0, p = 0$ atrofida ikkinchi hadni chizikli holga keltirib (31) tizimning uchunchi tenglamasini quyidagi ko'rinishga keltiramiz

$$\frac{dp}{dt} = \frac{A_2}{k_p} \frac{dx_2}{dt} - \frac{k_{QP}}{k_p} p + \frac{k_3}{k_p} x_1, \quad (32)$$

bu yerda $k_3 = \mu b x_1 \sqrt{\frac{2p_0}{\rho}}$, $k_{QP} = \mu b x_1 \sqrt{\frac{2}{\rho p_0}}$.


(32) ifodani (31) tenglamalar tizimiga qo'yib quyidagi ko'rinishga keltiramiz va barqarorlashtiruvchi u funksiyani kiritamiz:

$$\begin{aligned} \frac{d^2 x_1}{dt^2} &= \frac{A_1}{m_1} p_1 - \frac{k_1}{m_1} \frac{dx_1}{dt} - \frac{c_1}{m_1} x_1 + \frac{c_1}{m_1} x_2 + u, \\ \frac{d^2 x_2}{dt^2} &= \frac{A_2}{m_2} p - \frac{k_2}{m_2} \frac{dx_2}{dt} - \frac{c_1}{m_2} x_1 + \frac{c_1 - c_2}{m_2} x_2, \\ \frac{dp}{dt} &= \frac{A_2}{k_p} \frac{dx_2}{dt} - \frac{k_{QP}}{k_p} p + \frac{k_3}{k_p} x_1. \end{aligned} \quad (32)$$

Belgilashlar kiritib, avvalgi amallarga o'xshash hisoblarni bajarib, barqarorlashtiruvchi funksiyani quyidagi ko'rinishda olamiz:

$$u = -\frac{1}{2} \left[-\frac{k_1}{m_1} + \frac{\sqrt{k_1^2 + m_1^2}}{m_1} \right] x_2 \quad (33)$$

(32) differensial tenglamalar asosida, barqarorlashtiruvchi funksiya (33) ni hisobga olgan (a) va olmagan (b) holda gidravlik tizimning Simulink modeli ishlab chiqildi (9-rasm).




9-rasm. Stabilizatsiyalovchi funksiyani hisobga olgan (a) va olmagan (b) holatdagi servomexanizmning Simulink modeli

Taklif etilgan model asosida 1-jadvalda c_1, c_2 – prujinalarining bikrligi, k_1, k_2 – dempfer koeffitsiyentlarining turli qiymatlarida, gidrotizimdagi bosim o‘zgarishi, gidrotaqsimlagich zolotnigi, gidrosilindr porshenining siljishi natijalari keltirilgan. Modellashtirish gidrotaqsimlagich zolotnigining to‘liq ochilgan holda va $t = 0,5$ soniya davomida amalga oshirilgan.


1-jadval

Tizim parametrlarining turli qiymatlari bo‘yicha barqarorlashtiruvchi funksiyani hisobga olgan va olmagan holatlardagi tebranish rejimining grafiklari



Dissertatsiyaning “**Transport vositalari gidravlik tizimlarining eksperimental tadqiqi**” nomli to‘rtinchi bobida transport vositalarining gidravlik tizimining asosiy parametrlari, gidravlik tizimlarda eksperimental tadqiqotlar o‘tkazish uchun shartlar va o‘lchov vositalari, tadqiqot usuli, eksperiment natijalarini qayta ishlash ma’lumotlari taqdim etilgan.

Sinovlar KИ 4815M gidravlik tizimlar uchun sinov stendi (10-rasm) va Festo universal gidravlik stendlarida (11-rasm) o‘tkazilgan.




10-rasm. KI 4815M stendi




11-rasm. Festo gidravlik stendi

Transport vositasining drosselli boshqariluvchi gidravlik tizimlarining laboratoriyaviy eksperiment tadqiqotlari KI 4815M va Festo stendlarida o‘tkazildi. Drosselning 50, 60, 70, 80, 90 va 100 % ochilishlarida tizimdagi bosimning drosselga kirish va chiqishdagi o‘zgarishlari olindi. Tizim 700 N yuk bilan yuklanganda, drosselga kirishdagi bosim (15,39; 13,89; 6,09; 2,97; 2,8; 2,6) MPa, chiqishdagi bosim (1,84; 1,8; 1,8; 1,58; 0,6; 0,56) MPa ni, tizim 500 N yuk bilan yuklanganida, drosselga kirishdagi bosim (15,32; 13,81; 6,01; 2,93; 2,44; 2,4) MPa, chiqishdagi bosim (1,81; 1,8; 1,69; 1,39; 0,6; 0,56) MPa ni tashkil etdi (12 - rasm).




12-rasm. Drosselga kirish va chiqishdagi bosim qiymatlarining vaqt bo‘yicha o‘zgarishi: yuklanish a) 700 N; b) 500 N

Festo stendiga 90 N yuklama berilganida, drossel 30, 60 va 100 % ga ochilgan holatlarida quyidagi bosim qiymatlari qayd etildi: drosselga kirishdagi bosim: 0,75; 0,8; 0,9 MPa, drosseldan chiqishdagi bosim: 0,9; 0,8; 0,74 MPa (13 - rasm).




13 - rasm. Drosselning a) 100%, b) 60 % va v) 30% ochilishlarida tizimdagi bosimning o'zgarishi tajriba natijalari

Laboratoriya stendlari KI 4815M va Festoda olingan natijalar Matlab-Simulink va FluidSIM-H dasturiy paketlari yordamida olingan natijalar bilan taqqoslandi (14,15-rasmlar).



14-rasm. Gidravlik tizimdagi bosim o'zgarishlarini tajriba natijalari va hisobiy natijalar bilan taqqoslash: a) 700 N; b) 500 N



15-rasm. Drosselning 100, 60, 30 % ochilish holatiga ko'ra bosimning taqqoslash natijalari

Matlab/Simulink dasturida yaratilgan gidrotizim matematik modeli asosida taklif etilgan stabilizatsiya usuli natijalari taqqoslanganda (700 N yukda – 5,67 %, 20

500 N yukda – 9,07 %) KI 4815M stendida olingan tajriba natijalariga yaqin bo‘lgan (maksimal farq 10 % gacha). Shu sababli, ushbu model transport vositalari gidrotizimlarining parametrlarini ilmiy asoslashda qo‘llanilishi mumkin.

XULOSA

“Avtoransport vositalari uzlukli gidravlik tizimlari boshqaruvi barqarorligini oshirish uchun dinamik model ishlab chiqish” mavzusidagi texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalari asosida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. Transport vositasining ikki pozitsiyali gidravlik tizimi uchun Zubov usuli asosida (gidravlik silindrdagi ishqalanishni hisobga olgan holda) Lyapunov teoremasini qanoatlantiruvchi manfiy hosilaga ega bo‘lgan, tizim turg‘unligini ta‘minlovchi musbat Lyapunov funksiyasi va gidravlik tizimning turg‘unlik sharti aniqlandi.

2. Matlab-Simulink dasturi yordamida gidravlik tizimning (gidrotaqsimlagich va gidrosilindr) dinamik modeli ishlab chiqildi va hisoblandi. Tashqi yuklanishlar 700 N va 500 N bo‘lganida, drosselning (100, 90, 80, 70, 60 va 50 %) ochilishlarida, tizimdagi bosimning o‘zgarishi natijalari olindi. Drosselning 60–50 % ochilishlarida tizimda yuqori bosim (14–16 MPa) kuzatildi; Tashqi yuklanish 90 N bo‘lganida, drosselning (30, 60 va 100 %) ochilishlarida, tizimdagi bosimning o‘zgarish natijalari olindi.

3. Dinamik dasturlash uslubidan foydalangan holda elektrogidravlik tizim ijrochi elementlari aylanma va ilgarilanma-qaytma harakatlanuvchi bo‘lgan hollarda stabillashtiruvchi funksiyalarni aniqlash uchun Bellman tenglamalari olinib, tizimlar uchun optimal stabillashtiruvchi funksiyalari aniqlandi.

4. Gidravlik tizimlarni stabillashtirishning taklif etilgan modellari Matlab-Simulink dasturi yordamida, tizimdagi bosim, gidromotor valining buralish burchagi, gidrosilindr porsheni va gidrotaqsimlagich zolotnigining siljishi o‘zgarishlari, stabillashtiruvchi funksiyani hisobga olingan va olinmagan hollar uchun aniqlandi.

5. Transport vositasining drosselli boshqariluvchi gidravlik tizimlarining laboratoriyaviy eksperiment tadqiqotlari KI 4815M va Festo stendlarida o‘tkazildi. Drosselning 50, 60, 70, 80, 90 va 100 % ochilishlarida tizimdagi bosimning drosselga kirish va chiqishdagi o‘zgarishlari olindi. Tizim 700 N yuk bilan yuklanganda, drosselga kirishdagi bosim (15,39; 13,89; 6,09; 2,97; 2,8; 2,6) MPa, chiqishdagi bosim (1,84; 1,8; 1,8; 1,58; 0,6; 0,56) MPa ni, tizim 500 N yuk bilan yuklanganida, drosselga kirishdagi bosim (15,32; 13,81; 6,01; 2,93; 2,44; 2,4) MPa, chiqishdagi bosim (1,81; 1,8; 1,69; 1,39; 0,6; 0,56) MPa ni tashkil etdi.

6. Festo stendida tizimga 90 N (stenddagi mavjud yuk) yuklanganda drosselning 30,60 va 100 % ochilishlarida: drosselga kirishdagi bosim (0,75; 0,8; 0,9) MPa, chiqishdagi bosim (0,9; 0,8; 0,74) MPa ni tashkil etdi.

7. KI 4815M va Festo stendlarida o'tkazilgan eksperiment natijalari, Matlab-Simulink va FluidSIM dasturlarida olingan natijalar bilan solishtirildi. Solishtirish natijalari mos ravishda 5,67 % va 1,3 % ni tashkil etdi.

8. Traktor gidrotizimiga ish jarayonini modellashtirish orqali loyihalash sifati va konstruktorlik ishlari samaradorligini 14-16 % oshirilishiga erishildi. Natijada mehnat unumdorligini oshishi hisobiga bir yilda iqtisodiy samaradorlik 11 200 000 so'mni tashkil etdi.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПРИ НАУЧНОМ СОВЕТЕ
DSc.02.30.2019. T/FM.61.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ
СТЕПЕНЕЙ ПРИ ИНСТИТУТЕ МЕХАНИКИ И
СЕЙСМОСТОЙКОСТИ СООРУЖЕНИЙ**

**ИНСТИТУТ МЕХАНИКИ И СЕЙСМОСТОЙКОСТИ СООРУЖЕНИЙ
ИМЕНИ М.Т. УРАЗБАЕВА АН РУЗ**

САИДОВ САРВАР АБДИЖАЛИЛОВИЧ

**РАЗРАБОТКА ДИНАМИЧЕСКИХ МОДЕЛЕЙ ГИДРАВЛИЧЕСКИХ
РАЗРЫВНЫХ СИСТЕМ УПРАВЛЕНИЙ ПОВЫШЕННОЙ
УСТОЙЧИВОСТИ ТРАНСПОРТНЫХ СРЕДСТВ**

01.02.02 – Динамика, прочность машин, приборов и аппаратуры

АВТОРЕФЕРАТ

диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам

Ташкент – 2026

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за B2021.1.PhD/T2037

Диссертация выполнена в Институте механики и сейсмостойкости сооружений Академии Наук Республики Узбекистан.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице (instmech@academy.uz) и информационно-образовательном портале «Ziyonet»(www.ziyonet.uz).

Научный руководитель: **Аннакулова Гулсара Кучкаровна**
кандидат физико-математических наук, старший научный сотрудник

Официальные оппоненты: **Мардонов Ботир Мардонович**
доктор физико-математических наук, профессор
Хужаев Мухиддин Кушаевич
доктор технических наук, доцент

Ведущая организация: **Ташкентский государственный технический университет имени Ислама Каримова**

Защита диссертации состоится «__» _____ 2026 года в ___ часов на заседании Научного совета DSc.02/30.12.2019.T/FM.61.01 при Институте механики и сейсмостойкости сооружений Академии Наук Республики Узбекистан. (Адрес: 100125, г. Ташкент, проспект Дурмон йули, 40. Зал заседаний – 428. Тел.: (99855) 520-0245, (99855) 520-04-46, e-mail: instmech@academy.uz).

С диссертацией (PhD) можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Института механики и сейсмостойкости сооружений Академии Наук Республики Узбекистан. (зарегистрирована за №35). Адрес: 100125, г. Ташкент, проспект Дурмон йули, 40. Тел. (99855) 520-0245, (99855) 520-04-46.

Автореферат диссертации разослан «__» _____ 2026 года.
(реестр протокола рассылки № 35 от «22» декабрь 2025 года).



М.М. Мирсаидов
Председатель разового Научного совета
по присуждению ученых степеней,
д.т.н., профессор, академик АН РУз

Ф.Ф.Адилов
Ученый секретарь Научного совета, по
присуждению ученых степеней по
PhD физико-математическим наукам

А.А. Ризаев
Председатель Научного семинара при
разовом научном совете по присуждению
ученых степеней, д.т.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире гидравлические системы играют ключевую роль в управлении различными узлами транспортных средств, особенно в сельскохозяйственной, строительной и специализированной технике. Они обеспечивают работу рулевого управления, тормозов, трансмиссий и исполнительных механизмов. Однако такие системы часто работают в условиях высоких нагрузок, давления и температуры, что делает их уязвимыми к сбоям и снижает общую устойчивость транспортного средства. Особенно критично это при работе на пересечённой местности, в жарком климате или в случае внезапных отказов оборудования. Поэтому в современном машиностроении возрастает потребность в создании устойчивых гидравлических систем с возможностью автоматического разрыва потока энергии (разрывные контуры), обеспечивающих безопасность и сохранение управляемости транспортного средства при нештатных ситуациях.

